

ERTAKI KARTOSHKA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI TASHKIL QILISH

Abdurahimov Diyorbek Dilshodjon o'g'li

Magistrant, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute

**Mo'ydinova Shodiya Muzaffarjon qizi, Alqosimov Mahmudjon Iqboljon o'gli,
Mamatboev Akbarjon Anvarjon o'g'li**

Talaba, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute

A R T I C L E I N F O.

Keywords:

Urug'lik, tugunak, ertapishar, o'simta, nav, hosildorlik, nevskiy, zarafrshon.

Annotation

Ushbu maqolamizda ertaki kartoshka yetishtirishning texnologik xususiyatlari jumladan ekish bilan birlgilikda 20 % i N, P, K ning qolgan yillik me'yori solinishi, kartoshka xosilini belgilaydigan asosiy elementlaridan biri tupdagi poyalar soni ekanligi hamda urug'chiligi bayon etilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2022 LWAB.

Kirish. Kartoshka tomatdoshlar oilasiga (Solanaceae) mansub bo'lib Solanum avlodini tashkil etadi. Bu avlod 200 dan ziyod yovvoyi, yarim yovvoyi va madaniy turlarni o'z ichiga olib, shundan faqat bitta Solanum tuberosum L. madaniy holda keng ekiladi. Biz kartoshka o'simligini tugunaklaridan ko'paytirib sevib iste'mol qilamiz. Mevasi- rezavor, ikki uyali, ko'p urug'li, sariq-yashil rangli. Urug'i mayda, yassi, sariq rangda bo'lib, 1000 dona urug' vazni 0,5 gram.

Tuganak- shakli o'zgargan (metamorfozlashgan) poyadir. Chunki yer ostki poyaning yon kurtaklaridan rivojlangan oq poya (stolon) uchida oziq moddalarning kengayib hosil bo'ladi. Stolonning tugunakka birikkan joyi "kindik" deyiladi. Kartoshka qorong'uda saqlanganda ko'karib uzun, mo'rt, oq yoki xira rangli o'simtalar, yorug' joyda saqlanganda esa yo'g'on kalta, to'q yashil va boshqa rangdagi o'simtalar hosil qiladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Ertaki kartoshkadan yuqori va sifatli hosil olish eng avvalo o'suv davri 70-90 kun bo'lgan tezpishar va o'rtatezpishar navlar; Beloruskiy ranniy, Zarafshon, Nevskiy, Detskoselskiy, Pirmunes, Ogonyok, Gollandiyadan keltirilgan va o'zimizda yaratilgan Arinda, Arnova, Bahro – 30, Quvonch – 16/56 m, Red Skarlet, Fresko, Hamkor – 1150, Esprit, Bardoshli – 3, Sante, Romano, Marfona, Kondor, Binella, Kosmos, Germaniyadan keltirilgan Likariya, Karatop, Latona kabilar ekilgandagina olinadi. O'rtapishar, ya'ni o'suv davri 90 kun va undan ziyod o'rtapishar navlar ertaki kartoshka yetishtirishga yaramaydi. Chunki, ularda hosil tugish yozning jazirama issiq kunlariga to'g'ri kelib qoladi. Kartoshka yumshoq tuproq ekini, chunki uning tugunagi yer ostida shakllanadi. Shuning uchun u tuproqning havo rejimiga yuqori talabchan. Kartoshka tuproqdagi oziq elementlarga talabchan o'simlik. Bu uning biologik xususiyatlari, ko'p miqdorda biomassa to'plashi va nisbatan ildiz sistemasining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rtacha xar 100 sentner (10 tonna) kartoshka hosili o'zi bilan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliyni olib chiqib ketadi. Oziq elementlarni

yerdan olish bo'yicha kartoshka lavlagi va ba'zi texnik hamda sabzavot ekinlarni hisobga olmaganda ko'pchilik ekinlardan ustun turadi. Hozirgi vaqtida O'zbekiston respublikasi davlat reystriga kartoshkaning 100 dan ortiq navlari kiritilgan. Jumladan quvonch, red scarlet, gala, santé, romano, kondor, pikasso, marfona, sarnav, piskom, serhosil, umid, saviola, silvana, arizona, arnova, kabi navlari keng maydonlarda ekilmogda.

Tadqiqot natijalari. Ertaki kartoshkani yuqorida qayd etilgan muddat, ekish sxemasi va chuqurlikda vazni 30-80 grammlik nishlatilgan urug'lik tunganaklarni ekish uchun Belorus yoki MTZ-50 traktoriga osib SN-4B markali to'rt qatorli kartoshka o'tqazuvchi sajalkadan foydalaniladi. Ushbu sajalka yordamida traktor yurish tezligini o'zgartirish bilan istalgan tupsonini ta'minlash mumkin.

Ekish bilan birgalikda yillik azotli o'g'it normasining 20 foizi, fosforli o'g'itlarning qolgan hamma normasi solinadi. Yuqorida ko'rsatilgan sajalka bo'limgan xo'jaliklarda kartoshkani turli kultivatorlar yordamida qator orasini 70 santimetr qilib, 8-10 santimetr chuqurlikda chizib, qo'lda tunganaklarni egat ichiga qo'yib, yana kultivator (okuchnik) yordamida uni pushtadan 10-2 santimetr chuqurlikda yuritib, urug'lik kartoshkani ko'mish mumkin.

Kartoshka hosildorligini oshirish va ishlab chiqarishni ko'paytirishning asosiy vositalaridan biri ekin navini to'g'ri tanlash va sifatli urug'lik materialini ekish hisoblanadi. Nav va urug'lik tunganaklarni to'g'ri tanlab ekish orqali hosildorlikni 2-2,5 hissa oshirish mumkun. Kartoshka navlari pishib yetilish muddatiga qarab tezpishar, o'cta tezpishar, o'rtapishar, o'cta kechpishar va kech pishar navlarga bo'linadi. O'suv davri naviga qarab 75 kundan 105 kungacha, hosildorligi esa gektariga 35-40 tonnani tashkil etadi. Iste'mol uchun yetishtirilgan kartoshka tunganaklarni ko'zchalari yuza, nisbatan tekis, ya'ni archilganda etining ko'p qismi chiqimga chiqmaydigan navlar maqsadga muvofiqdir. Kartoshkaning fitoftora, so'lish, turli chirishlar, rak, viruslarga, nematodalarga, zararkunandalarga bardoshliligining ahamiyati katta, ayniqsa aynimaydigan yuqori haroratga chidamli, virusli, zamburug', mikoplazma hamda bakteriyali kasalliklarni yuqtirmaydigan navlarning bo'lishi muhimdir.

Urug'shunosligi. Ertapishar kartoshkani barvaqt yetishtirishda urug'lik tunganaklarni ekishga tayyorlashning eng muhim va majburiy elementlaridan biri uni kattaligiga qaarab saralash, 80 gramdan ziyod tunganaklarni esa ko'zchalar sonini hisobga olib kesib ekish hisoblanadi. Yuqorihosil olish ko'p jihatdan urug'likning sifatiga bog'liq. Ekish uchun sog'lom ekilayotgan navga xos shaklga ega bo'lgan 30 gramdan 80 gramgacha kattalikdagi tunganaklar saralab olinadi. Yirik tunganaklar kesilgach har biri tonnasiga chirich va kasallanmaslik uchun 100 litr suvgaga urug'lik dorilagichlar 5-6 kg TMTD parashogi yoki roslin eritmasi 4 kg amafos qo'shib yoki 0,05 % ivin, marganets sulfat eritmasida ivitib tayyorlash yaxshi natija berib hosildorlik 11-20% ga oshishi aniqlandi. Yuqoridagi tartibda urug'lik tunganaklar tayyorlangach ekish oldidan 20-25 kun davomida yorug'ham issiq honalarda 2-3 qatlam qalinlikda nishlatiladi. Natijada yashil, baquvvat 0,5-1 sm uzunlikdagi o'simtalar hosil qiladi. Urug'likni ana shunday nishlatib ekish mo'l hosil olish qaratilgan muhim tadbir bo'lib natijada kartoshka hosili 18-25% gacha oshib 12 kun erta pishib yetiladi. Nishlatilgan tunganaklar o'simtasi sinmasligi uchun dalalarga qattiq idishlarga solib yuboriladi.

Xulosa. Ertapishar kartoshka hosildorligi ko'p jihatdan uning tup qalinligiga bog'liq. Har gektar maydonda 57000 dan 71000 gacha ko'chat bo'lgani yoki 70x20-25 sm tartibda ya'ni, qator orasi 70sm tunganaklar orasi 20-25 smqilib ekilgani maqsadga muvofiq. Buning uchun har gektarga 3-3,5 tonna urug'lik tunganaklar ekilishi, ekiladigan tunganaklarning vazni esa 30-80 gram bo'lishi lozim. Urug'lik tunganaklarni ekish oldi tayyorlash majmuasi navlar bo'yicha o'simliklarning unib chiqishini 5-6 kunga, o'suv davrini 3-6 kunga tezlashtirishi, yuqori assimilyasiya yuzasining (navlar bo'yicha nazoratdagagi 41,5, 35,7 va 43,3 o'miga 44,8, 38,7 va 45,5 mingm2/ga) shakllanishini, hosil to'plash dinamikasini jadallashtirishi, viruslar bilan zararlanishini 7,1-8,3% ga kamayishi hisobiga hosildorlikning 10-18%, rentabellik darajasi 17,9-32,4% ga oshirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining respublikada kartoshka yrtishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish to'g'risidagi 2020-yil 6-maydagi PQ-4704- son qarori.
2. Ostonaqulov TE, Zuyev VI, Qodirxo'jayev OK. Sabzavotchilik; Darslik. Navro'z.- Toshkent; 2018 (2020)- 552 bet
3. Ostonaqulov. O'zbekistonda tugunak mevali ekinlar. Monografiya; Navro'z- Toshkent: 2020- 324 bet